

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
M.T.O‘ROZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK  
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

**IBRAGIMOV FARXOD XAYRULLOEVI**

**TOLA AJRATGICH VA LINTER MASHINALARI UCHUN SAMARALI  
ARRALI SILINDRLAR KONSTRUKSIYASINI YARATISHNING ILMIY-  
TEXNIK ASOSLARI**

**05.02.03 – «Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari»**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации**

**Contents of the Abstract of Doctoral Dissertation**

**Ibragimov Farxod Xayrullaevich**

Tola ajratgich va linter mashinalari uchun samarali arrali silindrlar konstruksiyasini yaratishning ilmiy-texnik asoslari ..... 3

**Ибрагимов Фарход Хайруллаевич**

Научно-технические основы создания эффективных конструкций пильных цилиндров волокноотделительных и линтерных машин ... 29

**Ibragimov Farkhod**

Scientific and technical basis for creating effective designs of saw cylinders for fiber separation and linting machines ..... 55

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 59

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
M.T.O‘ROZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK  
MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

**IBRAGIMOV FARXOD XAYRULLOEVI**

**TOLA AJRATGICH VA LINTER MASHINALARI UCHUN SAMARALI  
ARRALI SILINDRLAR KONSTRUKSIYASINI YARATISHNING ILMIY-  
TEXNIK ASOSLARI**

**05.02.03 – «Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari»**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B203.4.DSc/T715 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sayti ([www.paxtasanoatilm.uz](http://www.paxtasanoatilm.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslaxatchi:**

**Muxammadiyev Davlat Mustafayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Toshpulatov Solih Shukurovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Sarimsakov Olimjon Sharifjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Safarov Nazirjon Muxammadjonovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ huzuridagi DSc30/30.11.2021.T.141.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "16" iyul soat 11<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100070, Toshkent sh., Shota Rustaveli ko'chasi 8-uy. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: [info@paxtasanoatilm.uz](mailto:info@paxtasanoatilm.uz) («Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati binosi, 3-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati Axborot-resurs makazida tanishish mumkin (33 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent sh., Shota Rustaveli ko'chasi 8-uy. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "06" iyul kuni tarqatildi.  
(2024 yil "06" iyul № 33-raqamli reestr bayonnomasi).



  
**T.M. Quliyev**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.



**M.R. Mo'minov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., k.i.x.



**R.Sh. Sulaymonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda paxta xom-ashyosi asosan tropik va subtropik mintaqalarida yetishtiriladi va to'qimachilik fabrikalarida kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, sanoat buyumlari va tibbiy kiyim-kechaklar, shuningdek, an'anaviy gigiena vositalari ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Shu munosabat bilan, 2023-2028 yillarda paxta bozori 2023 yildagi 42,80 milliard dollardan 2028 yilga kelib 2,7 foizlik jahon paxta bozorida 48,90 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda<sup>1</sup>. Shu jihatdan paxta xom ashyosini sifatli qayta ishlash uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta xom ashyosini qayta ishlash uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, O'zbekiston 0,59 million tonna paxta yetishtirib jahonda Xitoy (5,6), Hindiston (5,385), Braziliya (3,3), AQSh (2,707), Pokiston (1,475), Avstraliya (0,925) va Turkiya (0,75) dan keyin

8-o'rinda turadi va uchinchi eksportchidan 1 million gektar ekin maydoni bilan import qiluvchi davlatga aylandi<sup>2</sup>. Bu mamlakatlarda paxta xomashyosini tabiiy xossalarini saqlab qolgan holda qayta ishlash tannarxini pasaytirish maqsadida resurstejamkor mashinalar va paxta tozalash korxonalari uchun ehtiyot qismlarni yaratish va takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Respublikamiz paxta tozalash sanoatidagi mashinalar konstruksiyalarining samaradorligini oshirish uchun yangi ishlanmalar va ilmiy izlanishlar zarur bo'lganligi sababli, respublikamizda paxtani dastlabki ishlash uchun mashina va agregatlarning butlovchi qismlarining resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2024 yilgi Davlat byudjetidan davlat dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalarni moliyalashtirish uchun – 693,5 mlrd. so'm, ilmiy laboratoriyalar yaratish va zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlash uchun – 84,7 mlrd. so'm ajratilgan<sup>3</sup>. Yosh olimlarning qisqa muddatli ilmiy stajirovkalari uchun 20,655 milliard so'm mablag' ajratildi. Shu bilan birga, jadal iqtisodiy o'sish mamlakatimiz ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalarini tijoratlashtirish uchun ilg'or yutuqlardan samarali foydalanishni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirishni talab qiladi, bu esa texnologik mashina agregatlari va qismlarining energiya va resurstejamkorligiga bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan paxta tozalash sanoatini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlash maqsadida texnologik

<sup>1</sup> <https://www.mordorintelligence.com>

<sup>2</sup> [https://icac.shinyapps.io/ICAC\\_Open\\_Data\\_Dashbooard](https://icac.shinyapps.io/ICAC_Open_Data_Dashbooard)

<sup>3</sup> <https://lex.uz/pdfs/6707765>

mashinalarni takomillashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Paxta tozalash mashinalari ishchi qismlarining energiya va resurstejamkorligida aniq yig'ilgan butlovchi qismlar va to'g'ri ishlaydigan texnologik oraliq va ketma-ketliklarda mashinalar bir tekis ishlaydi va yuqori sifatli paxta mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307 sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.**

Tola ajratgich va linter mashinalari uchun arrali silindrlar konstruksiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan Agricultural Research Service, McCleskey Saw and Machine, Lummus, Continental eagle (AQSh), Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co.,Ltd (Xitoy), Nipha, Bajaj Steel Industries Limited (Hindiston) hamda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ, "Paxtagin KB", Mexanika va inshootalar seysmik mustahkamligi instituti (O'zbekiston) keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyoda olib borilgan tola ajratgich va linter mashinalari uchun arrali silindrlar konstruksiyasini ishlab chiqishning texnika va texnologiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: tola ajratish jarayoniga sarflanayotgan xarajatlarni optimallashtiruvchi, tola shikastlanishi va mashinalardan foydalanishni minimallashtiruvchi "IntelliGin" boshqarish tizimi yaratilgan (Agricultural Research Service, AQSh); arrali silindrning kolosnik panjaraga tegishini (titrashini) 0,005 mm gacha kamaytirish hisobiga uning uzoq ishlashini va arralarni almashtirish vaqtini kamaytiruvchi (McSami uskunasi) avtomatik rostlash usuli ishlab chiqilgan (McCleskey Saw and Machine, AQSh); Afina va Axmadobod sanoat ishlab chiqaruvchilari Lummus, Bajaj Continental arrali tola ajratuvchi mashinalari uchun – kolosnik panjara, diskli arra, arrali silindr, alyuminiy qistirmalari kabi ehtiyot qismlarni halqaro sifat standartlariga muvofiq ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan (KOMET, Gresiya), (C.N.INDUSTRIAL PRODUCT, Hindiston); geometrik o'qlari aylanish o'qiga nisbatan eksentrik tarzda yasalgan, oraliq qismlarning geometrik o'qlari esa aylanish o'qi bo'ylab spiral

---

<sup>4</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлен на основе следующих источников: <https://instmech.academy.uz>, <http://lummus.com>, <http://cotton.org>, <http://niphaindia.com>, <http://www.sdmj.com>, <http://ginningspares.com>, <https://www.researchgate.net>, <https://phoenixp3.com>, <https://komet.gr>

shaklida joylashgan arralararo qistirma ishlab chiqilgan (Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, O'zbekiston); paxta tozalash mashinalari uchun arralararo qistirmalarni poliamid materialidan yasash usuli ishlab chiqilgan («Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati, O'zbekiston); arrali tola ajratish va linterlash mashinalari uchun qistirmalarning dinamik, energetik va mustahkamlik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari va ularni po'latdan tayyorlangan texnologiyasi ishlab chiqilgan (Mexanika va inshootalar seysmik mustahkamligi instituti, O'zbekiston).

Dunyoda tola ajratgich va linter mashinalari uchun qurilma va texnologiyalarni yaratish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ishchi kameralar ko'ndalang kesimi yuzasini va uning hajmini o'zgartirish; xom ashyo va chigit valiklarini majburiy aylantirish; tola ajratgich va linterlash jarayonlariga sarflanayotgan harajatlarni optimallashtirish, tola shikastlanishi va mashinalardan foydalanishni minimallashtirish uchun avtomatik boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish; tola ajratgich va linterlash jarayonlarini barqarorlashtirish va mashinalarning ishchi qismlarini energiya va resurslarni tejash uchun konstruktiv yechimlar izlash shular jumlasidandir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tola ajratgich va linter mashinalarining ishchi qismlari va agregatlarini takomillashtirish, energiya sarfini kamaytirish hamda agregatlar va qismlarning xizmat qilish muddati va mustahkamligini oshirish, shuningdek, paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish hamda tadqiq etish bilan xorijda E.Whitney, S.Z.Hall, T.Elliot, S.E.Hughs, R.N.Rakoff, A.V.Stanley, R.G.Hardin, P.A.Funk, G.A.Holt, C.B.Armijolar shug'illanishgan.

Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda mahalliy bir qancha olimlar ham ilmiy izlanishlar olib borgan, ularga R.G.Mahkamov, P.N.Tyutin, R.Sh.Maqsudov, A.Maqsudov, M.Tillaev, M.Agzamov, D.A.Artukmetov, D.M. Muhammadiev, S.Z.Yunusov, O.Abzoirov va boshqalar keltirib o'tish mumkin. Ular paxtadan tola ajratish va chigitni linterlash jarayonlarida tola ajratgich va linter mashinalarining samaradorligini oshirishda ularni resurstejamkor qism va agregatlar bilan jihozlash, shuningdek, ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish yo'llarini belgilab berdilar.

Tola ajratish va linterlash kabi texnologik mashinalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlarga qaramay, resurstejamkor, arralararo qistirmalarning mustahkamligi va ishonchliligini oshirish, arra tishlarini kolosnik panjara ishchi qismlariga nisbatan joylashtirish aniqligini ta'minlash, ushbu mashinalarning ishchi kameralari, shuningdek, dinamik va konstruktiv parametrlarini aniqlash uchun tola ajratgich va linter mashinalari texnologik jarayonlarni bajarishdagi dinamik jarayonlar bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'rganilmagan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi institutining IOT-2017-2-15 "Jin arrali silindri uchun arralararo qistirma ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini joriy etish" innovasion loyiha (2017-2018) va IL-21091375 "Linter

uchun yangi konstruksiyadagi qistirmalar ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish” (2022-2024) bo‘yicha tadqiqot rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ishlab chiqarish texnologiyasi va mustahkamligi yuqori bo‘lgan arralararo qistirmalarni takomillashtirish orqali tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrlarning resurstejamkor konstruksiyasini yaratish va ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

paxta tozalash texnologik jarayonlarini tahlil qilish, tola ajratgich va linter mashinasi uchun resurstejamkor arrali silindr konstruksiyalarni ishlab chiqish;

tola ajratgich va linter mashinalari uchun har xil materiallardan tayyorlangan arrali silindrlarning arralararo qistirmalari tebranish dinamikasini o‘rganish;

tola ajratgich va linter mashinalarining arrali silindr vallari aylanma tebranishlari va burilish burchaklarining o‘zgarish qonuniyatlarini taqsimlangan parametrlarga ega bo‘lgan mashina agregat harakatining dinamik va matematik modellarini ishlab chiqish;

tola ajratgich va linter mashinalarining arralararo qistirmalarining ishlab chiqilgan konstruksiyasining mustahkamlik parametrlarini sinov-tajriba yordamida aniqlash;

tola ajratgich va linter mashinasi uchun ishlab chiqilgan arrali silindrlarni samaradorligini, energiya sarfini kamaytirish va resurssamaradorligini oshirish;

**Tadqiqot ob‘ekti** – 4DP-130 tola ajratgich va 5LP linter mashinalar arrali silindrlarning arralararo qistirmalari.

**Tadqiqot predmeti** arralararo qistirmalar ishlab chiqarish uchun oqilona materialni asoslash orqali tola ajratgich va linter mashinalari uchun arrali silindrlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratishning ilmiy-texnik asoslari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, texnologik mashinaning ish jarayonlarini matematik modellashtirish, tajriba ma’lumotlarini rejalashtirish va qayta ishlashning matematik statistikasiga asoslangan usullar qo‘llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

arrali disk egilishini, radial tebranishlar amplitudasini va ish paytida siqish kuchini kamaytirishni ta’minlaydigan tola ajratgich va linter (O‘zbekiston Respublikasi IAP 06691 ixtiroga patenti) mashinalarining resurslarni tejaydigan materiallardan foydalangan holda arralararo qistirmalarning yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tola ajratgich va linter mashinalarining ratsional arralararo qistirmalar bilan arra silindrlarning tebranish parametrlarini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

mashina agregatlari dinamikasini hisoblashning ishlab chiqilgan metodologiyasidan foydalanish asosida umumlashgan va taqsimlangan parametrlarga ega tola ajratgich va linterlash mashinalari arrali silindrlarini aylanish paytida burilish tebranishlari va vallarning buralish burchaklarining qonuniyatlari aniqlangan;

po‘latdan 3 dan yasalgan tola ajratgich va linterlash mashinalarining arralararo qistirmalarning resurstejamkor konstruksiyasining mustahkamlik ko‘rsatkichlari eksperimental tadqiqotlar bilan isbotlangan, bunda arrali silindrlarni mahkamlash

kuchi va kuchlanishlari hamda po‘latdan tayyorlangan arralararo qistirmalarning ratsional qalinligi aniqlangan;

energiya sarfi bo‘yicha arralararo qistirmalarning resurs tejovchi konstruksiyalari bilan tola ajratgich (O‘zbekiston Respublikasi FAP 01182 va FAP 00786 foydali modellariga patentlari) va linter mashinalari arrali silindrlarining asosiy konstruksiyaviy, texnologik va texnik-foydalanish ko‘rsatkichlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tola ajratgich va linter mashinalarining arralararo qistirmalari tebranish parametrlarining dinamik hisoblash usuli ishlab chiqilishi ularni tayyorlashda resurstejamkor materialni aniqlash imkonini bergan;

to‘plangan va taqsimlangan parametrlarga ega mashina agregatlarining dinamikasini hisoblash usulubi arrali silindrlarni buralish paytida burilish tebranishlari va valning aylanish burchaklarining o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rnatish va ularning mustahkamligini ta‘minlash imkonini bergan;

turli materiallardan tola ajratgich va linter mashinalarining arralararo qistirmalarini sinash usullari va dasturlari ishlab chiqilgan;

tola ajratgich va linter mashinalarining po‘latdan (St.3) tayyorlangan arralararo qistirmali resurstejamkor konstruksiya arrali silindrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishlab chiqilgan ilmiy qoidalar, tamoyillar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va tajribaviy natijalar mutanosibligi, natijalarni taqqoslash va baholash mezonlari bo‘yicha tahlilni hisobga olgan holda sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida va ko‘rib chiqilayotgan fanlar kesimida qiyosiy tahlilning ijobiyligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqarish materiallarini, arrali silindrlar mashina agregatlarining dinamik va energiya ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda tola ajratish va linterlash mashinalarining arralararo qistirmalarning tebranish parametrlari dinamikasini aniqlash, shuningdek, tola ajratgich va linter mashinalarining arrali silindr vallarini aylanish paytida buralish tebranishlari va buralish burchagi qonuniyatlarini topish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta tolasi, lint va chigit sifatini, shuningdek ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlarini saqlab qolgan holda, belgilangan maqbul parametrlar asosida tola ajragich va linter mashinalarining arrali silindrlarini yig‘ish aniqligini oshirish uchun arralararo qistirmalarning yangi energiya va resurslarni tejaydigan konstruksiyalarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Tola ajratgich va linter mashinalari uchun arralararo qistirmalarning resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish natijalari asosida:

paxta tozalash korxonalarini uchun arralararo qistirmaning yangi konstruksiyasi uchun Intellektual mulk agentligidan ixtiroga IAP 06691 (2021) va foydali modelga FAP 01182 (2017) O‘zbekiston Respublikasi patentlari olingan. Ushbu konstruksiyalarni qo‘llash natijasida radial tebranishlar amplitudasi 4,5 baravarga va siqish kuchini esa 2 baravarga kamaytirish imkonini bergan;

“Real Agro Cotton” YK tasarrufidagi “Qorasu paxta tozalash” korxonasida tola ajratgichning arralararo qistirmasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqarishga joriy

etildi (“O‘zpxatasanoat” AJ 2018 yil 5 iyuldagi 02-29/4573-son ma’lumotnoma). Natijada, arrali silindrning energiya sarfini 7,1% ga kamaytirish va arralararo qistirmaning ishlash resursini 46,5% ga yaxshilanishiga erishilgan;

“APK Bo‘ka” MChJ tizimidagi Bo‘ka paxta tozalash korxonasida linterlar uchun yangi konstruksiyadagi arralararo qistirmalar ishlab chiqarishga joriy qilingan (“APK Bo‘ka” MChJ tizimidagi Bo‘ka paxta tozalash korxonasini joriy etish bo‘yicha sinov bayonnomasi”. 2023 yil 16 oktyabr. O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik uyushmasi klasterlari ma’lumotnomasi” 2023 yil 21 dekabrda 03/22-1102-son). Natijada, arrali silindrga sarflanadigan energiya miqdori 3,0% ga kamaytirilgan va arralararo qistirmaning yangi konstruksiyasi yordamida linter mashinasining ish unumdorligini 5% gacha oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta halqaro va 5 ta milliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 31 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 18 ta, shundan xorijiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining ixtirosiga 1 ta va foydali modeliga 2 ta patent olingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 253 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha horijiy ilmiy tadqiqotlarga va muammoning o‘rganilganlik darajasiga sharhlar berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Arrali tola ajratish va chigitni linterlash texnologik jarayonlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar holatini analitik tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy arrali tola ajratgich va linter mashinalarining konstruksiyalari bo‘yicha tahlillar o‘tkazilgan.


Mahalliy tola ajratgich va linter mashinalarning tahlili arralarning kolosnik panjaralari tirqishlarida joylashish aniqligini va arrali silindrga kerakli qattiqligini ta‘minlay olmasligini ko‘rsatdi. Shuning uchun arrali silindrning eng istiqbolli va texnologik talablarga javob beradigan, tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrlarini yig‘ishda dissertatsiya muallifining fikriga ko‘ra, arralararo qistirmaning yangi konstruksiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, tadqiqotning maqsadi arralararo qistirmalarning resurs tejovchi konstruksiyasini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrlar

parametrlarini ilmiy asoslashdan iborat. Binobarin, keyingi tadqiqotlar tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrlarini yig'ishda arralararo qistirmaning dinamik, konstruktiv va texnologik parametrlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Dissertasiyaning **“Tola ajratgich va linter mashinalari arralararo qistirmalar tebranishini hisobi”** deb nomlangan ikkinchi bobida yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida arralararo qistirmaning yangi konstruksiyasi taklif qilingan (1-rasm). Unda valning o'lchamiga mos keladigan teshikli disk va konsentrik joylashgan belbog' mustahkam metall listdan yasalgan. Belbog'da disk bilan biriktirish uchun teshiklar bajarilgan.




**1-rasm. Tola ajratgich arralararo qistirmasining yangi konstruksion yechimi**




**2-rasm. Tola ajratgich arralararo qistirmasini radial tebranishi va inersiya momentini aniqlash uchun hisobiy sxema**

AK5M2 alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan seriyali qistirmalarning mavjud kamchiliklarini bartaraf etish uchun po'lat 3 materialidan yangi konstruksiyadagi tola ajratgich uchun (1-rasm) va linter mashinasi uchun (3-rasm) arralararo qistirma taklif etilgan. Ushbu materiallarning xususiyatlari standartlarda keltirilgan va ular keng assortimentda mavjud. “KOMPAS” dasturidan foydalanish asosida arralararo qistirmaning inersiya momenti o'zgarishlari (2 va 4-rasmlar) list qalinligi  $\delta$  (3-rasm) ga qarab aniqlangan.




**3-rasm. Linter mashinasi arralararo qistirmasini yangi konstruksiyasi**



**4-rasm. Linter mashinasi arralararo qistirmasini radial tebranishi va inersiya momentini aniqlash uchun hisobiy sxema**

Qurilgan bog‘liqliklar natijalari (5-rasm) shuni ko‘rsatdiki, materiallarning har xil zichligi tufayli AK5M2 alyuminiydan yasalgan arralararo qistirma massasiga teng bo‘lgan qistirmani po‘lat 3 dan ishlab chiqarishda birinchisining inersiya momenti ikkinchisidan 2 baravar kam va kerakli kontakt (belbog‘) qalinligining rasional qiymati po‘lat qistirma uchun  $\delta=2$  mm, linter mashinasi uchun  $\delta=1,5$  mm bo‘lishi kerak.



**5-rasm. Belbog‘ qalinligiga  $\delta$  bog‘liq holda tola ajratgich (a) va linter (b) mashinalari arralararo qistirmalarining inersiya momentining o‘zgarishi**

Ma‘lumki, inersiya momentlarining qiymatini saqlab qolishdan tashqari, ularning radial tebranishlarining chastotasini aniqlash orqali tavsiya etilgan arralararo qistirma konstruksiyasining samaradorligini aniqlashtirish kerak (2 va 4-rasmlarga qarang). Buning uchun  $\delta \ll R$  ni hisobga olgan holda arralararo qistirmaning uzunlik bo‘yicha massasi  $m_0$ , elastik moduli  $E$ , ko‘ndalang kesim yuzasi  $F$  ni asoslash kerak.

Arralararo qistirmaning radial tebranish chastotasi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\omega = \frac{\sqrt{EF/m_0}}{R} \quad (1)$$

Arralararo qistirma radial tebranish chastotasi hisoblari alyuminiy AK5M2 ga nisbatan po‘lat 3 qistirmada vertikal tebranishlar 6,2% ga kamayishi aniqlandi. Arralararo qistirmalarining radial tebranishlarga mustahkamligi tola ajratgich uchun 6,59% ga (AK5M2 – 44013,87 s<sup>-1</sup> va Po‘lat 3 – 46917,65 s<sup>-1</sup>) va linter mashinasi uchun 43,95% ga (AK5M2 – 75547,14 s<sup>-1</sup> va Po‘lat 3 – 108751,5 s<sup>-1</sup>) aniqlandi. Bu tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrining aylanish chastotasidan (76,44 s<sup>-1</sup>) ancha yuqori bo‘ldi.


Arralararo qistirmaning radial tebranishlarining amplitudasini nazariy hisoblash orqali hamda maxsus jihozlangan stendda tajriba orqali aniqlash mumkin. Bu ko‘rsatkichlar dissertasiya muallifi tomonidan hisob-kitob yo‘li bilan aniqlangan.

Arralararo qistirma elementining ko‘chish differensial tenglamasini tuzamiz (7-rasm). Bunda barcha ta‘sir qiluvchi kuchlarni radiusga proeksiya qilib, biz ( $dm_o=dSm_o$ ) olamiz.


$$\ddot{u} + \frac{EF}{m_o R^2} u = \frac{p_o}{m_o} + \frac{p_1}{m_o} \cos \omega t \quad (2)$$

Arralararo qistirmaning radial harakatining statik tashkil etuvchisi tufayli  $r_0$  bosimining doimiy qiymati hosil bo‘ladi, arralararo qistirmaning barqaror holatdagi tebranishlar amplitudasi esa quyidagicha

$$u_1 = \frac{P_1}{m_o \left( \frac{EF}{m_o R^2} - \omega^2 \right)} \quad (3)$$




a



b

6-rasm. Ko‘ndalang kesim maydoniga bog‘liq holda tola qistirma (a) va linter (b) mashinalari arralararo qistirmalarining radial tebranish chastotasini o‘zgarishi





7-rasm. Arralararo qistirma radial tebranish amplitudasini aniqlash uchun hisobiy sxema

Cho‘zish kuchi  $N = E \cdot F \cdot u / R$  – bu siqish va cho‘zilishdagi arralararo qistirma ko‘ndalang kesimidagi elastik kuchdir. Bu yerda  $u$  – arralararo qistirmaning radial deformatsiyasi ( $u$  va  $N$  ning ijobiy qiymatlari arralararo qistirmaning cho‘zilish jarayonini anglatadi).


Arralararo qistirmaning kichik tebranishlari hisoblab chiqilgan bo‘lib, buning asosida tola ajratgich uchun po‘lat 3 dan yasalgan qistirmaning alyuminiyga nisbatan tebranish davrining qisqarishi ( $\tau = 7,23079 \cdot 10^{-5}$  s) AK5M2 ( $\tau = 1,8478 \cdot 10^{-4}$  s) 2,5 marta (8a-rasm) va linter mashinasi uchun po‘lat 3 dan ( $\tau = 4,085 \cdot 10^{-5}$  s) yasalgan qistirma alyuminiy AK5M2 ( $\tau = 1,176 \cdot 10^{-4}$  s) ga nisbatan 2,88 martaga kamaygan.

Bundan tashqari, tola ajratgichni arralararo qistirmaning radial tebranishlari amplitudasini hisoblash po‘lat 3 ( $1,236 \cdot 10^{-6}$  m) ni AK5M2 alyuminiy ( $5,65 \cdot 10^{-6}$  m) bilan solishtirganda vertikal yo‘nalishdagi tebranishlarning 4,5 baravar pasayishini aniqlash imkonini berdi.

Tola ajratgich arralararo qistirmaning xususiy tebranish chastotasi dvigatel – arrali silindr tizimi tebranish chastotasiga teng bo‘lsa, kuchli tovush va tebranishlar, ba’zi hollarda mexanik shikastlanish bilan birga kechadigan rezonans paydo bo‘ladi. Bunday hollarda aylanuvchi tizimning kritik tezligi tebranishlarning xususiy chastotasi bilan tavsiflanadi. Xususiy tebranishlar chastotasini aniqlash rezonans zonalarini o‘rnatish, tebranishlarni pasaytirish xarakterini va uzatmaning majburiy aylanma tebranish amplitudalarini tahlil qilish uchun zarurdir.



**8-rasm. Ko'ndalang kesim maydoniga bog'liq holda tola ajratgich (a) va linter (b) mashinalari arralararo qistirmalarining o'rnatilgan radial tebranish amplitudasini o'zgarishi**



**9-rasm. Arralararo qistirmani kichik tebranishining hisobiy sxemasi**

Shuning uchun, arralararo qistirmaning o'z kichik burchakli tebranishlarining chastotasini aniqlash uchun biz arralararo qistirmaning o'q chizig'i beqaror bo'lib qoladi va uning kesma maydoni bir xil burchak ostida tebranish paytida egilish deformatsiyasiga uchraydi (9a -rasm).  $m_o=0,14 \text{ kg} / 0,496 \text{ m} = 0,282 \text{ kg/m}$ , elastik modul  $E=2 \cdot 10^{11} \text{ N/m}^2$  ga teng bo'lgan tola ajratgichning arralararo qistirmaning solishtirma massasini hisobga olgan holda, arralararo qistirmaning qalinligi, (belbog')  $\delta=2 \text{ mm}$  uning radiusi  $R=0,08 \text{ m}$  dan ancha kichik bo'ladi.

Arralararo qistirma kesimining har bir nuqtasi, kesma burchak  $\varphi$  bilan aylantirilganda,  $\rho\varphi$  ga ( $\rho$  – nuqtaning qutb radiusi) teng egri chiziq bo'ylab (9b-rasm) aylanishini hisobga olamiz. Bu harakatning radial yo'nalishdagi proeksiyasi  $u=\rho\varphi\sin\alpha=u\varphi$ , bo'lib, aylana cho'zilishi (bu tolaning)  $\Delta l=2\pi y\varphi$  ga mos keladi.

Kinetik va potensial energiyalarni qatorlarga yoyib, arralararo qistirmaning kichik burilishdagi tebranishi uchun differensial tenglamani tuzamiz. U holda aylana tebranishlarning chastotasi


$$k = \sqrt{\frac{EF}{m_o R^2} \frac{J_x}{J_p}} \quad (4)$$

Bu yerda  $J_p = \frac{\pi D^4}{32}(1-c^4)$  –arralararo qistirmaning ko'ndalang kesim maydonining qutbli inersiya momenti;  $J_x = \frac{\pi D^4}{64}(1-c^4)$  – arralararo qistirmaning  $x$  o'qi bo'yicha inersiya momenti;  $c=d/D$ ;  $D$  – arralararo qistirmaning tashqi diametri;  $d$  – arralararo qistirmaning ichki diametri.

Doimiy  $A$  amplitudasi va  $\alpha$  boshlang'ich fazasida, arralararo qistirmaning kichik tebranishlar davri

$$\tau = \frac{2\pi}{k} = 2\pi \sqrt{\frac{m_o R^2 J_p}{EF J_x}} \cdot \quad (5)$$

Shu bilan birga, tola ajratgichning arralararo qistirmasining ko'ndalang kesim yuzasining oshishi bilan (10a-rasm) qistirma tebranishlarining aylanma chastotasi oshib borishi aniqlandi (AK5M2 uchun – 13919,4 dan 31124,7 s<sup>-1</sup> gacha, Po'lat 3 uchun – 47056,2 dan 105220,8 s<sup>-1</sup> gacha) va qistirma uzunligi bo'ylab taqsimlangan massa ortishi bilan qistirmaning aylanma tebranish chastotasi (AK5M2 uchun – 96562,0 dan 30535,6 s<sup>-1</sup> gacha, Po'lat 3 uchun – 206458,2 dan 65287,8 s<sup>-1</sup> gacha) kamayadi.




**10-rasm. Maydonning F ko'ndalang kesimiga bog'liq holda tola qistirma (a) va linter (b) mashinalari arralararo qistirmalarining o'rnatilgan aylanma chastota tebranishni o'zgarishi**


Linter mashinasining arralararo qistirmalari ko'ndalang kesimi 0,00001 dan 0,0001 m<sup>2</sup> gacha oshishi bilan (10b-rasm) qistirma tebranishlarining aylanma chastotasi (AK5M2 uchun – 7244, 5 dan 22909,2 s<sup>-1</sup> gacha, Po'lat 3 uchun – 19552,1 dan 61829,2 s<sup>-1</sup> gacha) ortadi va qistirmaning uzunligi bo'ylab taqsimlangan massasi 0,05 dan 0,5 kg/m gacha oshirilishi bilan qistirmaning aylanma tebranish chastotasi (AK5M2 uchun – 58746,3 dan 18577,2 s<sup>-1</sup> gacha, Po'lat 3 uchun – 124919,3 dan 39502,9 s<sup>-1</sup> gacha) pasayishi aniqlandi.

To'la ajratgichning arralararo qistirmasining ko'ndalang kesimi yuzasi oshishi bilan (11a-rasm) qistirmaning kichik tebranish davri (AK5M2 uchun – 4,51·10<sup>-4</sup> dan 2,02·10<sup>-4</sup> s gacha, Po'lat 3 uchun – 1,335·10<sup>-4</sup> dan 5,971·10<sup>-5</sup> s gacha) kamayadi va qistirma uzunligi bo'ylab taqsimlangan massaning ortishi bilan qistirmaning kichik tebranishlari davri (AK5M2 uchun – 6,51·10<sup>-5</sup> dan 2,06·10<sup>-4</sup> s gacha, Po'lat 3 uchun – 3,043·10<sup>-5</sup> dan 9,624·10<sup>-5</sup> s gacha) ortishi aniqlandi.

Bundan tashqari, arralararo qistirmaning ko'ndalang kesimi 0,00001 dan 0,0001 m<sup>2</sup> gacha oshishi bilan (11b-rasm) qistirmaning barqaror ishlashi paytida tebranish davri (AK5M2 uchun – 8,673·10<sup>-4</sup> dan 2,742·10<sup>-4</sup> s gacha, Po'lat 3 uchun – 3,213·10<sup>-4</sup> dan 1,016·10<sup>-4</sup> s gacha) qisqarishi aniqlandi va qistirma uzunligi bo'ylab taqsimlangan massaning 0,05 dan 0,5 kg/m gacha ortishi bilan (11-rasmga qarang), davr barqaror ish sharoitida qistirmaning tebranishlarini oshiradi (AK5M2 uchun – 1,069·10<sup>-4</sup> dan 3,338·10<sup>-4</sup> s gacha, Po'lat 3 uchun – 5,029·10<sup>-5</sup> dan 1,59·10<sup>-4</sup> s gacha).



a




b

11-rasm. Maydonning F ko'ndalang kesimiga bog'liq holda tola qistirma (a) va linter (b) mashinalari arralararo qistirmalarining kichik tebranish davrini  $\tau$  o'zgarishi

Shunday qilib, linter mashinasining barqaror ish sharoitida arralararo qistirmaning tebranishlarini hisoblash po'lat 3 ( $\tau=4,085 \cdot 10^{-5}$  s,  $k=153800,56$  s $^{-1}$ ) va alyuminiy AK5M2 ( $\tau=1,176 \cdot 10^{-4}$  s,  $k=53422,39$  s $^{-1}$ ) aylanish chastotasi va tebranish davri qiymatlaridagi farqni mos ravishda 2,88 va 0,347 marta teng ekanligini aniqlashga imkon berdi.

Linter mashinasi ishchi kamerasida chigitni linterlash jarayonidan keladigan texnologik yuklamalar arrali silindr va tezlatgich o'rtasida taqsimlanadi. Shu bilan birga, chigit valigi aylanishidan kelib chiqadigan yuklamalar va panjaralar orasiga va arrali silindr va tezlatgich o'rtasida arralarni o'rnatish aniqligi tufayli qismlarning mustahkamligi va qattiqligiga bo'yicha yuqori talablar qo'yiladi. Arrali silindrda tebranish mavjudligi linterning ishlash xususiyatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun, linter mashinasining arralararo qistirmalarining barqarorligini aniqlash uchun arrali silindrning ishlashiga ta'sir qiluvchi yarim to'lqinlar soni va kritik bosimlari aniqlash kerak. Ular qistirmaning o'lchamiga va ishlab chiqarilgan materialiga bog'liq bo'ladi.

Arralararo qistirmani halqa o'qi orqali o'tadigan ikkita ichki kesim bilan ajralib turadigan elementar balka sifatida ko'rib chiqaylik (12-rasm). Deformatsiyalangan holatning taxmin qilingan o'qli simmetriyasi tufayli, arralararo qistirmaning egilishi tekis elastik asosida yotadi. Har qanday balka uchun elastik tayanchning roli halqaning qolgan qismi tomonidan o'ynaydi.



12-rasm. Aylana silindrik xalqa sxemasi


Quyidagi ifodalarni kiritamiz:  $z$  — halqa (qistirma) o'qi bo'ylab o'lchangan kesma koordinatasi;  $w = w(z)$  — o'rta yuza nuqtalarining egilishi;  $T$  — qistirmaning ko'ndalang kesim konturining uzunlik birligiga siqish kuchi;  $D = \frac{E \cdot h^3}{12 \cdot (1 - \mu^2)}$  — qistirmaning silindrsimon qattiqligi;  $h$  — devorning qalinligi (qistirma);  $\mu$  — Poasson nisbati,  $k = \frac{E \cdot h}{R^2}$ ;  $R$  - qistirmaning o'rta kesim yuzasining radiusi.

Arralararo qistirmaning bo‘ylama egilishida  $z=0$  va  $z=l$  da arralararo qistirma  $w = 0, \frac{d^2 w}{dz^2} = 0$  uchlaridagi tayanch moslamalar turiga qarab chegaraviy shartlarni hisobga olib,  $n \gg l$  deb faraz qilsak, quyidagicha yozishimiz mumkin

$$n = \frac{l^4 \sqrt{12(1-\mu^2)}}{\pi \sqrt{R h}} \quad (6)$$

va qistirmaning kritik bosim kuchi

$$T_{kp} = \frac{E h}{R \sqrt{3(1-\mu^2)}} \quad (7)$$



**13-rasm. Linter mashinasi arralararo qistirmaning devor qalinligiga bog‘liq holda yarim to‘lqinlar soni (a) va kritik bosimning (b) o‘zgarishi**

Arralararo qistirmaning barqarorligi alyuminiy AK5M2 ( $n=0,3276$  – 13a-rasm) ga nisbatan Po‘lat 3 ( $n=0,4672$ – 13b rasm) uchun yarim to‘lqinlar soni 42,6% ga ortishi aniqlandi. Arralararo qistirmalarning kritik bosimga (AK5M2 uchun –  $T_{kr}=1642,3$  MPa va Po‘lat 3 uchun –  $T_{kr}=2263,4$  MPa) qarshiligi 37,8% ni tashkil etgani aniqlandi, bu esa po‘latdan yasalgan arralararo qistirmalardan foydalanib 4DPZ- 90 va 4DP-130 tola ajratgich hamda 5LP linter mashinalari arrali silindrlarini yig‘ish imkonini beradi.

Po‘latdan yasalgan arralararo qistirmalarni ishlab chiqarish jarayonida payvandlab ulangan belbog‘lar qo‘llaniladi. Shuning uchun, payvandlangan massaga ega bo‘lgan qistirma val o‘qiga nisbatan aylanganda, eksentriklik qiymati  $e=0,078$  m bo‘lgan massa markazi bilan  $\omega=76,44$  s-1 burchak tezligida aylansa, markazdan qochma kuch paydo bo‘ladi. Arralararo po‘lat qistirmalarning bir va ikki belbog‘li konstruksiyalarini statik muvozanatlash usullari aniqlangan. Payvand chokning qarama-qarshi tomonida joylashgan ikkita teshikning diametrini qisqartirish, masalan, bitta belbog‘li qistirma uchun –  $m_k=-6,3 \cdot 10^{-4}$  kg va ikki qatorli qistirma uchun –  $m_k=-1,044 \cdot 10^{-3}$  kg qistirmani statik muvozanatlash imkonini berdi.


Dissertasiyaning “**Tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrlari dinamikasi**” uchinchi bobida jamlangan va taqsimlangan parametrlarga ega tola ajratgich va linter mashinalari arrali silindrlarining mashina agregatlarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Arrali silindr valining buralishi paytida arralararo qistirmalarning maksimal siqish qiymatlari va burilish burchagini aniqlash uchun biz jamlangan (14-rasm) va


taqsimlangan parametrlarga (15-rasm) ega arrali silindr mashina agregatidan iborat tizimni o'rganamiz.

Lagranj tenglamalaridagi hadlarni aniqlab, umumiy shaklda arrali silindr mashina agregati harakatining differensial tenglamalarini olamiz.

$$\left. \begin{aligned} \mathfrak{S}_d \ddot{\varphi}_d &= M_d - c(\varphi_d - \varphi_2) - \varepsilon(\dot{\varphi}_d - \dot{\varphi}_2), \\ \mathfrak{S}_2 \ddot{\varphi}_2 &= c(\varphi_d - \varphi_2) + \varepsilon(\dot{\varphi}_d - \dot{\varphi}_2) - M_{cp} - M_0 \sin(\omega_2 t + \varphi_{20}) \end{aligned} \right\} \quad (8)$$



14-rasm. Arrali silindr dinamik modeli




15-rasm. Valning elementar bo'laklariga ta'sir qiluvchi xolatni sxematik tasvirlash


Arrali silindrning mashina agregatining harakatlanish (8) tenglamalarini dvigatelning xarakteristikalari  $t$  vaqtga qarab arrali silindrning burchak tezlanishidagi o'zgarishlar sxemasini qurish imkon berdi (16-rasm).

16a-rasmni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, elektr dvigatelining kritik harakatlantiruvchi momenti tola ajratgich uchun 40 000  $N \cdot m$  ekanligini va o'tish jarayon 3 s ichida sodir bo'lishini ko'rsatadi; arrali silindr burchak tezlanishining maksimal qiymati  $t=1,844$  s da 8739,828  $rad/s^2$  ni tashkil etadi va burchak tezlanishining o'zgarish funksiyasi sifatida quyidagini ifodalash mumkin.

$$\frac{\partial^2 \varphi_2}{\partial t^2} = \ddot{\varphi}(t) = 200 e^{2,05t} \cos 75 t. \quad (9)$$



a



b

16-rasm. Vaqtga bog'liq holda tola qistirma (a) va linter (b) mashinalari arrali silindr burchak tezlanishining o'zgarishi

Tayanchlar orasidagi arrali silindrning massasi - 258,8 kg va arralararo qistirmaning radiusini - 0,08 m ni hisobga olgan holda, biz arralararo qistirmadagi yuklamani aniqlaymiz - 180990 N.

$x=0$ , bo'lsa  $\frac{\partial \varphi_2}{\partial x} = \dot{\varphi}_{2x} = 0$ ,  $\varphi_{2x} = 0$ , u holda  $S_1=0$  va  $S_2=0$  tenglama quyidagicha

bo'ladi:

$$\dot{\varphi}_{2x} = \frac{1}{G I} \left( (200 \rho e^{2,05t} \cos 75 t) x - \frac{M_{cp} + M_0 \cos \pi \omega_2 t}{2 R \Delta \varphi_2 l} x^2 \right), \quad (10)$$

$$\varphi_{2x} = \frac{1}{G I} \left( (200 \rho e^{2,05t} \cos 75 t) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{cp} + M_0 \cos \pi \omega_2 t}{6 R \Delta \varphi_2 l} x^3 \right). \quad (11)$$


16b-rasmni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, linter mashinasi arrali silindr burchak tezlanishining maksimal qiymati 7240,021 rad/s<sup>2</sup> ni tashkil qiladi va o'tish jarayon 5 s ichida sodir bo'ladi; elektr dvigateli quvvat sarfining maksimal qiymati  $t=1,5$  s da 182,23 kVt ga yetadi (16b-rasm). Linter mashinasi arrali silindrining burchak tezlanishi o'zgarishi vaqtini ikki qismga bo'lib aniqlash mumkin: I -  $t \in [0; 1,5]$  va II -  $t \in [1,5; 5]$ .

$$\begin{cases} \frac{\partial^2 \varphi_{ny}}{\partial t^2} = \ddot{\varphi}_{ny}(t) = 600 t - 490 e^{1,82t} \sin(72 t) & \text{azap } t \in [0; 1,5], \\ \frac{\partial^2 \varphi_{ny}}{\partial t^2} = \ddot{\varphi}_{ny}(t) = -150000 e^{-2t} \cos(55 t) & \text{azap } t \in [1,5; 5]. \end{cases} \quad (12)$$


$$\begin{cases} \dot{\varphi}_{nux} = \frac{1}{G I} \left( \rho \cdot (600 t - 490 e^{1,82t} \sin(72 t)) - \frac{M_{cp} + M_0 \cos(\pi \omega_{ny} t)}{\pi R l} x \right), \text{ arap } t \in [0; 1,5], \\ \dot{\varphi}_{nux} = \frac{1}{G I} \left( \rho \cdot (-150000 e^{-2t} \cos(55 t)) - \frac{M_{cp} + M_0 \cos(\pi \omega_{ny} t)}{\pi R l} x \right), \text{ azap } t \in [1,5; 5]. \end{cases} \quad (13)$$

$$\begin{cases} \varphi_{nux} = \frac{1}{G I} \left( \rho \cdot (600 t - 490 e^{1,82t} \sin(72 t)) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{cp} + M_0 \cos(\pi \omega_{ny} t)}{6 \pi R l} x^3 \right), \text{ azap } t \in [0; 1,5], \\ \varphi_{nux} = \frac{1}{G I} \left( \rho \cdot (-150000 e^{-2t} \cos(55 t)) \frac{x^2}{2} - \frac{M_{cp} + M_0 \cos(\pi \omega_{ny} t)}{6 \pi R l} x^3 \right), \text{ azap } t \in [1,5; 5]. \end{cases} \quad (14)$$

(10-14) tenglamalarni yechish taqsimlangan parametrli tola ajratgich (17-rasm) va linter (18-rasm) mashinalari arrali silindr valining aylanma tebranishlari dinamikasini o'rganish imkonini berdi.



17-rasm. Tola ajratgich arrali silindr valining uzunligi bo'ylab vaqtga bog'liq xolda burchak tezlanishining o'zgarishi




**18-rasm. Val uzunligi bo'yicha va vaqtga bog'liq holda linter mashinasi arrali silindr burchak tezlanishining o'zgarishi**

130 arrali silindrning tayanchlar orasidagi massasi – 258,8 kg, qistirmaning tashqi radiusi – 0,08 m teng ekanligini bilgan holda, qistirmani siqish kuchining maksimal qiymati – 180990 N aniqlashimiz mumkin va bu qiymatlarda arrali silindrning nisbiy buralishning maksimal burchagi  $1,89^{\circ}/m$  ni tashkil qiladi. Po'lat 3 materialidan qistirma ishlab chiqarishda uning siljish moduli 3 barobarga ortishi natijasida qattiqligini 16% ga ortadi va 130 arrali silindrli tola ajratgich valining buralish burchagini 3,172 dan  $1,051^{\circ}/m$  gacha kamayishiga olib keladi.


Val  $l$  uzunligiga qarab uning buralish burchagi o'zgarishi grafiklari qurilgan (19-rasm).

A.E.Levin va M.M.Sokolovning tavsiya etilgan xarakteristikalariga ko'ra, linter arrali silindrining mashina agregatini o'rganishi shuni ko'rsatdiki, elektr dvigatelining kritik quvvat sarfi mos ravishda 23,407 va 182,23 kVt, o'tish jarayoni mos ravishda 0,6 va 5 s ichida sodir bo'ladi va linter mashinasining arrali silindri burchak tezlanishining maksimal qiymati  $t=0,171$  s da  $844,666 \text{ rad/s}^2$  ga va  $t=1,441$  s da  $7240,021 \text{ rad/s}^2$  ga yetadi. Shu bilan birga, A.E. Levin tavsiya etgan xarakteristikaga ko'ra ishga tushirish momentining ortishi –  $319,388/240,356=1,329$  ekanligi va M.M. Sokolovga ko'ra –  $5601,694/240,356 = 23,305$  ekanligi aniqlandi. Linter mashinasining arrali silindri valining burilish burchagi qiymatlari o'rtasidagi farq  $2,52^{\circ}/0,108^{\circ}=23,34$  marta va elektr dvigatelning ishga tushirish momenti  $5601,694/319,388 \approx 17,54$  marta ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalarni hisobga olgan holda, mashina agregatning dinamikasini hisoblashda A.E.Levin tomonidan taklif qilingan xarakteristikani tavsiya qilamiz.

Tola ajratgich arrali silindrining kritik aylanishlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, tola ajratgich arrali silindrining uzunligi bo'yicha xom-ashyo valigi massasi 0 dan 42 kg/m gacha ortishi bilan kritik burchak tezlik 119,66 dan 101,79 rad/s (15%) gacha kamayadi.  $m_l=38$  kg/m da,  $EJ_x$  tola ajratgich arrali silindr valining egilish bikrligi 100 000 dan 1 000 000 N·m<sup>2</sup> gacha oshishi bilan kritik burchak tezligi 135,02 dan 42,70 rad/s (68,4%) ga kamayadi, bu ( $\omega_r \leq 0,75 \cdot \omega_{1kr}$  – qattiq val)  $76,44 \text{ rad/s} \leq (76,43-77,3) \text{ rad/s}$  birinchi kritik zona hisoblanadi.



a



b

**19-rasm. Val uzunligiga bog‘liq holda burilish holatida tola qistirma (a -  $t=1.8$  s) va linter (b- M.M.Sokolov uchun  $t=1.44$  s, A.E.Levina uchun esa  $t=0.171$  s) mashinalarini arrali silindr vali buralish burchagining o‘zgarishi**

Umuman olganda, radial tebranishlarning chastotasi va amplitudalarini, shuningdek, po‘lat 3 va AK5M2 alyuminiydan yasalgan arralararo qistirmalarning kichik tebranishlarini hisoblash natijalari arrali silindrlarni yig‘ishda seriyali arrali tola ajratgich va linterlar uchun po‘latdan yasalgan arralararo qistirmalardan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatdi.

Dissertasiyaning “**Tola ajratgich va linter mashinalari arralararo qistirmalarini mustahkamlik bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlari**” to‘rtinchi bobida arralararo qistirmalarning deformatsiyasining tajribaviy tadqiqot natijalari keltirilgan. Buning uchun PMM-125 markali (20-21-rasm) va WAW-1000D (22-23-rasm) presslaridan foydalangan holda tenzometriya usuli foydalanilgan. Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, arrali disklarga qistirmaning tegish yuzasining oshishi ishchi zonadagi kuchlanishning oshishiga olib keladi.

Listlar qalinligi 2 dan 1,6 mm gacha kamaytirilganda, qistirmaning deformatsiyasi mos ravishda 1,2 va 2 mm bo‘lishi aniqlandi. Shuning uchun, po‘latdan qistirma tayyorlash uchun uni qalinligi kamida 2 mm bo‘lishi kerak. Ushbu qistirma parametrlari bilan kuchlanish  $428,2 \text{ N/m}^2$  ni va tortish kuchi 425000 N ni tashkil qiladi, bu arralararo qistirmaning maksimal siqish kuchidan 2,3 baravar yuqori ekanligi aniqlandi.



a




b

a – tajribadan oldin; b – tajribadan keyin


**20-rasm. Fotosurat. Tola ajratgich qistirmasining namunasi**

